



ANDIJON VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

2022- yil 1- may holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)

Har qanday mamlakatning milliy iqtisodiy majmuasida markaziy o'rinni korxonalar egallaydi, chunki aynan ular milliy daromadni yaratadi, bir vaqtning o'zida ishlab chiqaruvchi vazifasini bajaradi hamda o'zini o'zi ta'minlash va mustaqillikka asoslangan takror ishlab chiqarish jarayonini amalga oshiradi.

Ma'lumki, yaratilgan yalpi milliy mahsulot hajmi, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, mamlakat aholisining moddiy va ma'naviy manfaatlarini qondirish darajasi mustaqil korxonalarning muvaffaqiyatlariga bog'liq.


Korxonaning foydalilik darajasi minimal ishlab chiqarish xarajatlari bilan fan va texnika yutuqlaridan foydalangan holda eng qulay sharoitlarni va shu bilan birga yuqori sifatli mahsulotlarni samarali ishlab chiqarishga imkon yaratishidir, boshqacha qilib aytganda, korxona bu – iqtisodiyotni tashkil qilishning shunday shakli bo'lib, u yerda yakka iste'molchi va ishlab chiqaruvchi uchta yirik iqtisodiy muammolarni hal qilish uchun bozor orqali o'zaro aloqada bo'ladi: nima, qanday va kim uchun ishlab chiqarish kerak? Shu bilan birga, tadbirkorlarning va tashkilotlarning birortasi ongli ravishda ushbu iqtisodiy muammolarning uchligini hal qilish bilan shug'ullanmaydi (bozor elementida har kim ularni individual darajada hal qiladi).

Ma'lumki, bozor tizimida hamma narsa o'z narxiga ega. Bozor iqtisodiyoti insonlar va korxonalarni narxlar va bozorlar tizimi orqali ongsiz ravishda muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. Agar bozorlarning barcha xilma-xilligini oladigan bo'lsak, unda o'z-o'zidan narxlar va ishlab chiqarish muvozanatini sinov va xatolar orqali ta'minlaydigan keng tizimga ega bo'lamiz.

O'zbekistondagi korxonalar faoliyati O'zbekiston Respublikasining soliq, bojxona, valyuta, moliya, investitsiya va boshqa qonun hujjatlarini o'z ichiga olgan qonunchiligi bilan tartibga solinib, mamlakatimizdagi korxonalarning ayrim xususiyatlarini, jihatlarini va faoliyatini tartibga soladi.

Korxona va tashkilotlar to'g'risida umumiy ma'lumotlar


fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 1-may holatiga ko'ra, birlikda




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar

2022- yil yanvar-aprel holatiga ko'ra


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Hududlar kesimida

Andijon sh.	418	Qo'rg'on tepa t.	163
Shahrixon t.	229	Jalaquduq t.	130
Andijon t.	221	Oltinko'l t.	130
Asaka t.	218	Marhamat t.	129
Baliqchi t.	207	Bo'ston t.	80
Izboskan t.	172	Buloqboshi t.	68
Xo'jaobod t.	170	Ulug'nor t.	55
Paxtaobod t.	168	Xonobod sh.	30


Joriy yilning yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 2 588 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan bu ko'rsatkich 407 taga ko'p va 118,7 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida o'tgan yilga nisbatan yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar Shahrixon (94 ta), Baliqchi (83 ta), Qo'rg'on tepa (74 ta), Xo'jaobod (73 ta), Izboskan (64 ta), Paxtaobod (51 ta) va Marhamat (50 ta) tumanlarida sezilarli o'sish kuzatildi.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

3 549
139,7 %

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

9 479
106,6 %

Sanoat

3 271
101,6 %

Qurilish

12 354
111,3 %

Savdo

1 408
102,8 %

Tashish va saqlash

1 954
103,5 %

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

580
100,0 %

Axborot va aloqa

1 054
113,7 %

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

8 764
105,0 %

Boshqa turlar

Hududlar kesimida


Andijon sh.	12 583
Asaka t.	4 015
Shahrixon t.	2 958
Andijon t.	2 911
Baliqchi t.	2 264
Qo'rg'ontepa t.	2 111
Izboskan t.	2 105
Oltinko'l t.	2 075
Marhamat t.	1 896
Xo'jaobod t.	1 818
Paxtaobod t.	1 785
Jalaquduq t.	1 746
Buloqboshi t.	1 283
Bo'ston t.	1 144
Xonobod sh.	870
Ulug'nor t.	849

2022- yil 1- may holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning mos davriga (38 855 ta) nisbatan 3 558 taga oshib, o'sish sur'ati 109,2 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar sonining o'tgan yilga nisbatan sezilarli o'sishi Baliqchi (363 ta), Andijon (355 ta), Izboskan (342 ta), Asaka (340 ta) va Xo'jaobod (331 ta) tumanlarida qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimi bo'yicha o'tgan yilga nisbatan eng yuqori ko'rsatkich savdo sohasida – 1 259 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 1 008 ta, sanoatda – 591 taga to'g'ri kelib, tashish va saqlash sohasida esa boshqa sohalarga nisbatan kamroq – 39 tani tashkil etdi.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati

2022- yilning
2020- yilga
nisbati2022- yilning
2021- yilga
nisbati

Hududlar kesimida

Andijon sh.	393
Shahrixon t.	218
Andijon t.	214
Baliqchi t.	204
Asaka t.	202
Izboskan t.	169
Paxtaobod t.	165
Xo'jaobod t.	163
Qo'rg'ontepa t.	160
Jalaquduq t.	128
Marhamat t.	126
Oltinko'l t.	125
Bo'ston t.	75
Buloqboshi t.	64
Ulug'nor t.	53
Xonobod sh.	28

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Tahlillar shuni ko'rsatdiki, so'nggi uch yil ichida viloyatimizdagi tadbirkorlik subyektlarining taxminan 20 foizi yangi tashkil etilgan.


Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari sonining o'tgan yilga nisbatan Baliqchi tumanida (87 taga), Shahrixon tumanida (87 taga), Qo'rg'ontepa tumanida (72 taga), Xo'jaobod tumanida (71 taga) va Izboskan tumanida (64 taga) sezilarli o'sishi kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilga nisbatan solishtirilganda eng yuqori o'sish qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida (796 taga) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida (2 taga) o'sish kuzatildi.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



2022- yil 1- may holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi - 37 071 tasi yoki 87,4 foizi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelib, o'sish sur'atlari o'tgan yilning shu davriga nisbatan 109,4 foizni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng yuqori o'sish qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (140,0 foiz), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (114,0 foiz), savdo (111,3 foiz), sanoat (106,6 foiz) hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (103,5 foiz) sohalarida kuzatilgan bo'lsa, hududlar kesimida esa Xo'jaobod (125,8 foiz), Baliqchi (123,1 foiz), Ulug'nor (121,7 foiz), Izboskan (121,5 foiz), Jalaquduq (120,4 foiz) va Marhamat (120,2 foiz) tumanlariga to'g'ri keldi.


Hududlar kesimida

Andijon sh.	11 434
Asaka t.	3 579
Andijon t.	2 601
Shahrixon t.	2 507
Baliqchi t.	1 963
Izboskan t.	1 824
Oltinko'l t.	1 771
Qo'rg'ontepa t.	1 767
Marhamat t.	1 626
Xo'jaobod t.	1 596
Paxtaobod t.	1 517
Jalaquduq t.	1 446
Buloqboshi t.	1 055
Bo'ston t.	934
Xonobod sh.	762
Ulug'nor t.	689


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	392	Qo'rg'on tepa t.	160
Shahrixon t.	218	Jalaquduq t.	128
Andijon t.	214	Marhamat t.	126
Baliqchi t.	203	Oltinko'l t.	125
Asaka t.	202	Bo'ston t.	75
Izboskan t.	169	Buloqboshi t.	64
Paxtaobod t.	165	Ulug'nor t.	53
Xo'jaobod t.	163	Xonobod sh.	28


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 960	Sanoat 386	Qurilish 104
Savdo 689	Tashish va saqlash 59	Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 64
Axborot va aloqa 42	Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish 49	Boshqa turlar 132


Ma'lumki, viloyatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik jadal rivojlanmoqda. Shuningdek, mahalliy tadbirkorlar va investorlar uchun bir qator qulay huquqiy va iqtisodiy sharoitlar yaratilib kelinmoqda.

Shunday qilib, 2022- yil yanvar-aprel oyida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2021- yilning mos davriga nisbatan 396 taga oshgan. Ushbu ko'rsatkich iqtisodiy faoliyat turlari kesimida tahlil qilinganda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 796 taga hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda – 2 taga oshganligini ko'rishimiz mumkin.


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Hududlar kesimida

Andijon sh.	11 353	Marhamat t.	1 619
Asaka t.	3 565	Xo'jaobod t.	1 589
Andijon t.	2 589	Paxtaobod t.	1 511
Shahrixon t.	2 502	Jalaquduq t.	1 440
Baliqchi t.	1 959	Buloqboshi t.	1 054
Izboskan t.	1 822	Bo'ston t.	930
Oltinko'l t.	1 766	Xonobod sh.	757
Qo'rg'ontepa t.	1 760	Ulug'nor t.	684


2022- yil 1- may holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlari soni 2021- yilning mos davriga nisbatan 3 140 taga ko'paygan va o'sish sur'ati 109,3 foizni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng yuqori o'sish qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida (139,8 foiz), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (113,7 foiz), savdoda (111,3 foiz) hamda sanoat (106,5 foiz) sohalarida kuzatilgan bo'lsa, hududlar kesimida Xo'jaobod (125,7 foiz), Baliqchi (123,1 foiz), Izboskan (121,7 foiz), Ulug'nor (121,5 foiz), Jalaquduq (120,2 foiz) va Marhamat (120,1 foiz) tumanlariga to'g'ri keldi.


Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

2022- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Dehqonchilik,
va chorvachilik,
ovchilik
va bu sohalarda
xizmat ko'rsatish

3 349

17

O'rmonchilik
va yog'och
tayyorlash

Baliq ovlash
va akvakultura

183


Asaka t.	467
Andijon sh.	301
Shahrixon t.	293
Qo'rg'ontepa t.	282
Andijon t.	269
Baliqchi t.	260
Izboskan t.	258
Paxtaobod t.	246
Marhamat t.	207
Jalaquduq t.	203
Oltinko'l t.	171
Ulug'nor t.	155
Bo'ston t.	150
Xo'jaobod t.	140
Buloqboshi t.	100
Xonobod sh.	47

O'zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.


Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida meva-sabzavot yetishtirishga bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash, shuningdek, bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.

Shunday qilib, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar sonining ko'pligi bo'yicha, Asaka tumani viloyatda yetakchilik qilib kelmoqda.

Yillar kesimida soni




Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	2 971
Asaka t.	989
Andijon t.	816
Shahrixon t.	703
Xo'jaobod t.	541
Oltinko'l t.	449
Baliqchi t.	447
Qo'rg'on tepa t.	385
Izboskan t.	364
Jalaquduq t.	363
Marhamat t.	324
Paxtaobod t.	293
Buloqboshi t.	289
Bo'ston t.	207
Xonobod sh.	203
Ulug'nor t.	135



Ishlab chiqarish sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish


Qayd etish kerakki, sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi. Shunday qilib, so'nggi uch yil ichida milliy iqtisodiyotda faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari sonining o'sish sur'ati 155,6 foizni tashkil etdi.

Sanoat korxonalari soni jami korxona va tashkilotlarning 22,3 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 96,4 foizini ishlab chiqarish sanoati (o'tgan yilga nisbatan o'sish 107,1 %), 1,5 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o'sish 102,1 %), 0,4 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (75,6 % ni) va 1,7 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish (94,1 % ni) tashkil etgan.


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida



Bino va inshootlar qurish

2 006
100,0 %

Fuqarolik obyektlarini qurish

292
116,3 %

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

973
101,2 %

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda o'sish sur'ati 13,7 foizga oshgan.


Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qarganda:

binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 61,3 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 100,0 foizni tashkil etadi;


fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 8,9 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 16,3 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 29,8 foiz ulushni va 101,2 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	3 414
Asaka t.	1 104
Shahrixon t.	816
Andijon t.	773
Baliqchi t.	770
Oltinko'l t.	714
Izboskan t.	709
Qo'rg'ontepa t.	655
Paxtaobod t.	625
Marhamat t.	571
Jalaquduq t.	557
Xo'jaobod t.	557
Buloqboshi t.	347
Bo'ston t.	308
Ulug'nor t.	219
Xonobod sh.	215

Avtomobil va
mototsikllar
savdosidan tashqari
chakana savdo

7 982
109,6 %

Avtomobil va
mototsikllar
savdosidan tashqari
ulgurji savdo

3 459
114,6 %


Avtomobil va
mototsikllarning
ulgurji va chakana
savdosi va ularni
ta'mirlash

913
115,4 %


Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar sonini ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qaralganda:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishida 64,6 foiz ulushni tashkil etgan bo'lib, 2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda 9,6 foizga o'sgan;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 28,0 foiz ulushni tashkil etib, 14,6 foizga oshgan;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 7,4 foiz ulushni tashkil etib, 15,4 foizga o'sgan.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	771
Asaka t.	174
Andijon t.	140
Xonobod sh.	104
Shahrixon t.	95
Oltinko'l t.	83
Qo'rg'ontepa t.	80
Ulug'nor t.	72
Izboskan t.	69
Paxtaobod t.	63
Jalaquduq t.	58
Xo'jaobod t.	57
Baliqchi t.	55
Buloqboshi t.	54
Marhamat t.	46
Bo'ston t.	33

Yashash bo'yicha xizmatlar

Oziq- ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar




2022- yil 1- may holatiga ko'ra yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda 14,1 foizga oshgan bo'lib, viloyatdagi jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 4,6 foiz ulushini tashkil etdi.


Mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar va shaharchalar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyatlari hisoblanib, 2022- yil 1- may holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 7,0 foiz ulushini tashkil etdi.

Restoran, oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazish va buyurtma bo'yicha ovqat va ichimliklarni yetkazish faoliyatlari oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 93,0 foiz ulushini tashkil etdi.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	213
Asaka t.	45
Baliqchi t.	39
Marhamat t.	38
Xo'jaobod t.	35
Shahrixon t.	34
Buloqboshi t.	34
Andijon t.	28
Qo'rg'ontepa t.	24
Oltinko'l t.	19
Paxtaobod t.	18
Jalaquduq t.	16
Izboskan t.	12
Xonobod sh.	11
Ulug'nor t.	10
Bo'ston t.	4



Nashriyotchilik faoliyati



Kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish



Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirish



Aloqa



Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar




Axborot xizmati ko'rsatish sohasidagi faoliyat

2022- yil 1- may holatiga ko'ra nashriyotchilik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 13,6 foizini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 5,3 foizga oshgan.


Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 47,6 foizini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 4,5 foizga o'sgan.

Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar hamda axborot xizmati ko'rsatish sohasidagi faoliyat yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasidagi korxona va tashkilotlarning 38,8 foizini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 93,4 foizni tashkil etgan.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	374
Asaka t.	87
Shahrixon t.	84
Andijon t.	71
Izboskan t.	60
Baliqchi t.	52
Marhamat t.	47
Qo'rg'ontepa t.	45
Xo'jaobod t.	44
Oltinko'l t.	43
Paxtaobod t.	42
Jalaquduq t.	37
Buloqboshi t.	37
Xonobod sh.	17
Bo'ston t.	9
Ulug'nor t.	5

Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

1 025
113,4 %

Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

18
112,5 %

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish


11
157,1 %

2022- yil 1- may holatiga ko'ra, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning 97,3 foizini sog'liqni saqlash sohasi yo'nalishidagi korxonalar tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 13,4 foizga o'sgan.


Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasining 1,7 foizini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 12,5 foizga oshgan.

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 1,0 foizini tashkil etib, 2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda 57,1 foizga o'sgan.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	583
Asaka t.	133
Andijon t.	97
Shahrixon t.	76
Qo'rg'ontepa t.	65
Izboskan t.	55
Baliqchi t.	53
Xo'jaobod t.	51
Oltinko'l t.	50
Marhamat t.	49
Paxtaobod t.	45
Bo'ston t.	42
Jalaquduq t.	42
Buloqboshi t.	35
Ulug'nor t.	17
Xonobod sh.	15

Quruqlikdagi va quvur transporti

1 078

105,1 %

Ombor xo'jaligi va yordamchi transport faoliyati

304

95,3 %

Pochta va kuryerlik faoliyati

25

108,7 %

Havo transporti

1

100,0 %

2022- yil 1- may holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 3,3 foiz ulushini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlari sohasining quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlari soni 2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda 5,1 foizga oshgan. Pochta va kuryerlik yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda 108,7 foizni, havo transporti yo'nalishida 100,0 foizni hamda ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishida 95,3 foizni tashkil etgan.


Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha umumiy ma'lumot

2022- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

Tadbirkorlik subyektlari soni




Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi



Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning birlashtirilishi (shakllantirilishi) va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog'liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta'minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Hududlar kesimida


Andijon sh.	367	Paxtaobod t.	124
Shahrixon t.	189	Marhamat t.	120
Baliqchi t.	187	Oltinko'l t.	107
Andijon t.	180	Jalaquduq t.	98
Asaka t.	174	Buloqboshi t.	62
Izboskan t.	157	Bo'ston t.	55
Qo'rg'ontepa t.	148	Ulug'nor t.	51
Xo'jaobod t.	135	Xonobod sh.	27

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

2 681
157,7 %



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

7 201
111,2 %



Sanoat

2 884
105,6 %



Qurilish

9 754
115,8 %



Savdo

1 298
104,2 %



Tashish va saqlash

1 332
109,2 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

457
109,3 %



Axborot va aloqa

787
117,6 %



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

2 769
107,2 %



Boshqa turlar

Hududlar kesimida

Andijon sh. 9 234

Asaka t. 2 263

Andijon t. 2 044

Shahrixon t. 1 991

Izboskan t. 1 575

Baliqchi t. 1 531

Oltinko'l t. 1 421

Marhamat t. 1 374

Xo'jaobod t. 1 373

Qo'rg'ontepa t. 1 295

Paxtaobod t. 1 284

Jalaquduq t. 1 189

Buloqboshi t. 837

Xonobod sh. 617

Ulug'nor t. 587

Bo'ston t. 548


2022- yil 1- may holatiga ko'ra faoliyat yuritayotgan 37 071 ta tijorat korxonalari va tashkilotlaridan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 29 163 tani tashkil etdi. Shunga asosan, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar viloyatimizdagi eng keng tarqalgan tadbirkorlik faoliyatining shakli ekanligi haqida xulosa qilishimiz mumkin.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaranganda, o'sish qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (157,7 foiz), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (117,6 foiz), savdo (115,8 foiz), sanoat (111,2 foiz), axborot va aloqa (109,3 foiz), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (109,2 foiz) sohalarida kuzatilgan bo'lib, hududlar kesimida esa Baliqchi (137,1 foiz), Marhamat (128,8 foiz), Ulug'nor (126,0 foiz), Bo'ston (125,1 foiz), Izboskan (124,3 foiz) va Paxtaobod (123,9 foiz) tumanlarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish kuzatilgan.


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati




Hududlar kesimida

Andijon sh.	1 211	Oltinko'l t.	178
Asaka t.	726	Jalaquduq t.	160
Baliqchi t.	345	Paxtaobod t.	147
Shahrixon t.	258	Izboskan t.	129
Qo'rg'ontepa t.	251	Buloqboshi t.	112
Andijon t.	229	Bo'ston t.	92
Marhamat t.	210	Xonobod sh.	78
Xo'jaobod t.	194	Ulug'nor t.	58


2022- yil 1- may holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslanganda 15,1 foizga kamaydi.

Xususiy tadbirkorlik subyektlari o'sish sur'atlarining o'tgan yilga nisbatan pasayishiga axborot va aloqa (68,6 foiz), qurilish (74,2 foiz), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (79,3 foiz), tashish va saqlash sohalari (79,5 foiz), shuningdek, hududlar kesimida esa – Paxtaobod (70,7 foiz), Andijon shahri (73,0 foiz), Qo'rg'ontepa (81,8 foiz) va Shahrixon (81,9 foiz) tumanlari ta'sir ko'rsatmoqda.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	792	Buloqboshi t.	90
Asaka t.	551	Baliqchi t.	59
Andijon t.	302	Xonobod sh.	56
Bo'ston t.	280	Jalaquduq t.	37
Shahrixon t.	239	Paxtaobod t.	36
Qo'rg'ontepa t.	194	Ulug'nor t.	33
Oltinko'l t.	145	Marhamat t.	25
Izboskan t.	99	Xo'jaobod t.	11

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




2022- yil 1- may holatiga yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2 949 tani yoki ro'yxatdan o'tganlarning 92,1 foizini tashkil etdi. O'tgan yilga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar sonining o'sishi 107,4 foizni tashkil etdi.

Oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda qurilish (133,3 foiz), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (127,8 foiz), savdo (114,3 foiz), tashish va saqlash (111,1 foiz) hamda sanoat (106,7 foiz) sohalarida eng yuqori o'sish kuzatilgan bo'lib, hududlar kesimida esa Shahrixon (122,6 %), Andijon (121,3 %), Baliqchi (120,4 %), Bo'ston (117,2 %), Qo'rg'ontepa (116,9 %) va Paxtaobod (116,1 %) tumanlarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish kuzatilgan.


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

2022- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



2022- yil 1- may holatiga ko'ra viloyatimizda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 381 tani tashkil etdi. O'tgan yilga nisbatan ularning soni 107,3 foizga, ya'ni 26 donaga ko'paygan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng yuqori o'sish tashish va saqlash (133,3 foiz), qurilish (133,3 foiz), axborot va aloqa (125,0 foiz) hamda savdo (124,0 foiz) sohalariga to'g'ri kelib, hududlar kesimida esa Qo'rg'ontepa (144,4 foiz), Asaka (135,0 foiz), Buloqboshi (130,8 foiz), Jalaquduq (123,1 foiz), Baliqchi (114,3 foiz) hamda Paxtaobod (112,5 foiz) tumanlariga to'g'ri keldi.

Hududlar kesimida


Andijon sh.	150
Andijon t.	30
Shahrixon t.	27
Asaka t.	27
Oltinko'l t.	21
Xonobod sh.	19
Buloqboshi t.	17
Jalaquduq t.	16
Marhamat t.	14
Xo'jaobod t.	13
Qo'rg'ontepa t.	13
Paxtaobod t.	9
Baliqchi t.	8
Izboskan t.	7
Bo'ston t.	6
Ulug'nor t.	4

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

25 Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	197 Sanoat	28 Qurilish
62 Savdo	4 Tashish va saqlash	9 Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
5 Axborot va aloqa	6 Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	45 Boshqa turlar

2022

2021



Rossiya



AQSH



Germaniya



Xitoy



Turkiya



Janubiy Koreya



Ozərbayjon



Turkmaniston



Tojikiston



Qozog'iston




Qirg'iz R.



boshqalar

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatining asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, pragmatizm, bashoratga intilish, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shniçilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 252 tasi qo'shma korxonalar, 129 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.



Qo'shma korxonalar

Xorijiy korxonalar

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyot jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylilik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda. Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan, avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar hisoblanadi (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar hisoblanadi.


Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar hisoblanadi.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida 2022- yil 1- may holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Andijon viloyati statistika
boshqarmasi Statistik
registrlarni yuritish bo'limi
Tel.: 74 228-29-74**

